



UDK:334.7:323.2(575.1)

*Begzod ISADJANOV,*  
*Mustaqil tadqiqotchi*  
*E-mail:bisadjanov@gmail.com*

*Dsc U.Bo‘tayev taqrizi asosida*

## O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotsatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar sharoitida notijorat tashkilotlarining tutgan o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi, ushbu maqsad yo‘lida olib borilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatini aks ettiradi. Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida NNTlar uchun yaratib berilayotgan institutsional o‘zgarishlarning tendensiyalari tahlil etilgan. Qolaversa, so‘nggi yillarda NNT uchun ajratib berilayotgan grantlar va ularning tahlili ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fuqarolik jamiyati, xalqaro tashkilotlar, grant, subsidiyalar, demokratik o‘zgarishlar, yuridik shaxs, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, notijorat tashkilot, transmilliy korporatsiyalar.

## DEVELOPMENT PROCESSES OF NON-STATE NON-PROFIT ORGANIZATIONS AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

Annotation

Today, in the context of reforms being carried out in our country, the role of non-profit organizations is of great importance, reflecting the essence of democratic reforms being carried out for this purpose. The article analyzes the trends of institutional changes being created for NGOs at a new stage of Uzbekistan's development. In addition, grants allocated to NGOs in recent years and their analysis are revealed.

**Key words:** Civil society, international organizations, grant, subsidies, democratic changes, legal entity, public associations, public funds, non-profit organization, transnational corporations.

## ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Сегодня, в контексте проводимых в нашей стране реформ, роль некоммерческих организаций имеет большое значение, отражая суть проводимых в этих целях демократических преобразований. В статье анализируются тенденции институциональных изменений, создаваемых для ННО на новом этапе развития Узбекистана. Кроме того, раскрываются гранты, выделяемые ННО в последние годы, и их анализ.

**Ключевые слова:** Гражданское общество, международные организации, грант, субсидии, демократические преобразования, юридическое лицо, общественные объединения, государственные фонды, некоммерческая организация, транснациональные корпорации.

**Kirish.** Jahonda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki masalalari yuzasidan qator fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari nisbatini aniqlash, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish shular jumlasidandir. Misol uchun hatto AQShda notijorat tashkilotlarini ushbu hudud va huquqiy tartibot mazmunidan kelib chiqqan holda uch guruhga bo‘lishni nazarda tutadi: norasmiy tashkilotlar; inkorporatsiyalashgan notijorat tashkilotlar (korporatsiyalar); soliq qonunchiligiga asosan soliqdan ozod qilingan tashkilotlar (Internal Revenue Code)[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** NNTlarning rivojlanishiga nazariy jihatdan qaraganda jahon tarixida tutgan o‘rni va ularning tarixiy rivojlanish tendensiyalari haqida juda ko‘plab qarashlar va olimlarning (Sh.Yakubov, Sh.Nazarov, T. R.Davies, T.Tvedt, P.Willetts, A.Kuruvila, W. D. Eberwein, B. A.Reinalda, W.Tesseur, Ye. G.Tarxanova, M.T. Ford, S.Adu-Gyamfi, D. B.Awuah, K.Amaky-Boateng) fikrlarini tahlil qilgan holda, mazkur institutning rivojlanishiga davlatning huquqiy tizimi, uning huquqiy rivojlanish darajasi, demokratik

g‘oyalarni amalga oshirish bo‘yicha jamiyat a‘zolarining tashabbuskorligi kabi omillar ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan degan fikrni ilgari suradi[2]. Ushbu qarashlar asosida NNTlarning nazariy asoslarini rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida fuqarolik jamiyati institutlarini himoya qilish konstitutsiya darajasida belgilandi. Xususan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutiya sinining XIII –bobida maxsus Fuqarolik jamiyati institutlari bobi ajratilib, 7 ta modda[3] ajratilishini o‘zi yangi taraqqiyot uchun fuqarolik jamiyati institutlariga bo‘lgan yangicha qarash hisoblanadi.

Yurtimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanishining yangi bosqichi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[4] da fuqarolik jamiyati

institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilanib, sohani takomillashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilgan edi. Xususan, Prezidentimizning 2021 yil 4 martdagi "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2021 yil 3 martdagi "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Farmon bilan 2025 yilga qadar mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlanishning asosiy bosqich va yo'nalishlarini aniq ko'rsatib, bu borada institutsional va funksional ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda edi. Xususan;

Birinci, 2021 yil 1 martdan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazuvchi organni xabardor qilgan (ma'lumot uchun) holda xorijiy manbalardan olinadigan pul mablag'lari va mol-mulkning bir kalendar yilidagi jami summasi bazaviy xisoblash miqdorining 20 baravaridan 100 baravarigacha oshirildi, nodavlat notijorat tashkilotini qayta ro'yxatdan hamda uning ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazish muddati 1 oydan 15 kungacha qisqartirildi;

Ikkinchi, nogironligi bo'lgan shaxslar, faxriylar, nuroniylar, xotin-qizlar, bolalar jamoat birlashmalari ramzlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun davlat boji bekor qilindi;

Uchinchi, viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududida faoliyat olib boradigan NNT hududiy nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblanib, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun BHMning 50 foizi miqdorida davlat boji undirilishi belgilanib, moliyaviy erkinlik berildi;

To'rtinchi, NNTlarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari (komissiyalari) majlislarida ishtirok etuvchi doimiy vakili instituti, NNT faoliyatining ochiqlik indeksining joriy qilinishi, "Shaffof hayriya" yagona interaktiv portalining ishga tushirilishi hamda davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar berish tartibining soddalashtirilishini alohida aytishimiz mumkin. Bu boradagi o'zgarishlarga e'tibor bersak, davlat tomonidan subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo'llab-quvvatlash hajmi 2021 yilda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun jami 75 mlrd. 782 mln. so'mni tashkil etgan bu 2008 yilga nisbatan taqqoslaganda Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi 36 barobarga, 2010 yilga nisbatan 16 barobarga, 2017 yilga nisbatan 6,5 barobarga oshganligini ko'rsatadi. Qolaversa, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun davlat budjetidan 2023 yilda 226,4 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2024 yilda bu raqam 1.3 trln. so'mni tashkil etgan. "Uchinchi sektor" sub'ektlarining loyihalari davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar miqdori 1,9 barobarga oshirilishini o'zi ham yurtimizda chin ma'noda NNT va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida ijobiy munosabat paydo bo'lganligini anglatadi. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini faoliyatini rivojlantirmay turib, "inson-jamiyat va davlat" munosabatlarida diolog shakllanmaydi. Muloqotni o'rnatilishi esa "Kuchli fuqarolik jamiyatini" shakllanib borayotganligidan dalolat beradi.

Har qaysi tizimni rivojlantiruvchi bu kadrlar hisoblanadi. Malakali kadrlarsiz sohani yuqori cho'qqiga olib chiqishi qiyin jarayon. Kadrlar – bu strategiya. Bu borada ham so'nggi yillarda NNT vakillarini malakasini oshirish orqali ularga boshqaruv ko'nikmasini shakllantirish, davlat ijtimoiy

ahamiyatiga doir subsidiyalari, grantlarni jalb etish maqsadida yurtimizda jami 2025 yilga qadar 750 nafar NNT rahbarlarini Davlat boshqaruv akademiyasida malaka oshirish rejalashtirildi, bugungi kunda kelib esa, 500 nafarga yaqin NNT vakillarini malakasi oshirildi hamda ularga maxsus sertifikatlar berilib bu jarayon davom etmoqda.

Shu qunga qadar mamlakatimizda NNT hamda fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi 2014 yil 25 sentabrdagi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni hamda Parlament komissiyasining 2016 yil 20 iyundagi № 28-sonli Qarori № 2-ilovavasi bilan tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlari to'g'risidagi" Nizom asosida olib kelinayotgan edi.

**Tahlil va natijalar.** Bu boradagi jarayonlarni takomillashtirish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasini davlat organi tomonidan berish tizimini soddalashtirish, davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari uchun munosib loyihalarni tanlab olish sifati va shaffofligini oshirish maqsadida, davlatimiz Rahbarining 2024 yil 26 avgustida "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzoladi. Ushbu Farmon tom ma'noda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Farmonga ko'ra, quyidagilar fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to'laonli foydalanish;

- jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko'zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish yo'lida ta'sirchan jamoatchilik nazorati olib borilishini rag'batlantirish;

- fuqarolik jamiyati institutlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini yo'lga qo'yish hamda ularning xorijdagi uyushmalari bilan hamkorligini mustahkamlash;

- fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularga o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlari yaratish.

Farmonga ko'ra, Oliy Majlis, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo'shib yuborish va ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (keyingi o'rinlarda – Fond) hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo'linmalarini (keyingi o'rinlarda – alohida bo'linmalar) tashkil etish belgilandi. Bu esa, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning hududlarda bo'linmalari tashkil etish orqali, hududlarda NNT va fuqarolik jamiyati institutlarini tinglash, muloqot qilish va qo'llab-quvvatlashga imkoniyatni beradi.

Shuningdek, Fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolaridan iborat bo'lgan parlament palatalari vakillari har yili

navbatma-navbat raislik qiladigan Parlament komissiyasini (keyingi o'rinlarda – Parlament komissiyasi) tuzish, uning faoliyatiga manfaatdor vazirlik va idoralar hamda faol jamoatchilik vakillarini jalb etish belgilandi. Bu esa, tizimda shaffoflikni ta'minlashga, jamiyatning dolzarb masalalari bo'yicha deputatlari va senatorlar o'rtasida konsensusni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va tashabbuskor fuqarolarni "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlash vakolatini Parlament komissiyasiga o'tkazish ham jamiyatimizda NNTni faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Farmonning yana bir ahamiyatli jihati har yili dekabr oyining birinchi haftasida "Fuqarolik jamiyati haftaligi"ni o'tkazib borish, uning doirasida Oliy Majlis, Adliya vazirligida NNT vakillari bilan uchrashuv va muloqot o'tkazish, fuqarolik jamiyati institutlarini rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar tashkil etish, shu jumladan, "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlashdir. Chunki jamiyatda "Fuqarolik jamiyati haftaligi"ni o'tkazish orqali markaziy, hududiy va tuman miqyosidagi NNTning faoliyati siyosiy uyg'onib, faoliyatini raqobat asosida takomillashtirib boradi va o'z tashabbus hamda g'oyalarini namoyon etish orqali imidjini mustahkamlaydi.

Farmonda har ikki yilda Fond tomonidan taqdirlanadigan "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofoti ta'sis etiladi. Bu ham yurtimizda uchinchi sektor vakillariga bo'layotgan e'tibor va e'zozlanib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki bugungi islohotlarni barcha bo'g'inlarida "Inson manfaatlar ustuvor" ekanligi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga ham tadbir etilmoqda. Bu borada hatto, "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yoritish yo'nalishida nominatsiya tashkil etilishini o'z ham yuksak e'tibor qaratilayotganligini anglatadi.

Qolaversk, ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan oilalar a'zolariga homiylik tashkilotlari tomonidan soliq davri mobaynida to'g'ridan-to'g'ri beriladigan pul mablag'lari tarzidagi homiylik xayriyalarining soliq solinmaydigan miqdorini o'n besh million so'mdan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha oshirish hamda 2025 yil yanvardan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslar, faxriylar, xotin-qizlar hamda bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan davlat bojlari

miqdorini ikki baravarga kamaytirilgan holda undirish taklif etilmoqda. Bu ham NNT lar faoliyatini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmi sifatida joriy etilmoqda.

Farmon bilan har yili vazirlik va idoralar fuqarolik jamiyati institutlariga ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha tanlovlar tashkil etish belgilandi. Bu esa davlat ijtimoiy buyurtmasini davlat organi tomonidan amalga oshirishda dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murosasiz muhitni shakllantirish hamda ta'lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarining eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilishi belgilandi. Bu esa, jamiyatdagi mavjud muammolarni ilmiy va amaliy jihatdan yechim topishga xizmat qiladi. Qolaversa, davlat organlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzular shakllantirish, tanlovga qatnashish, tanlovga davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishning maqsadga muvofiqligi va ularning hajmlarini oshirishga xizmat qiladi.

Aynan farmonda fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi beriladi. Ilgari bu borada aniq ta'sirchan mexanizm yo'q edi. Bu to'g'ridan-to'g'ri "davlat organi + NNT" hamkorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, Farmonda yana bir-qancha NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar joriy etilmoqdaki, bular aynan davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari uchun munosib loyihalarni tanlab olish sifati va shaffofligini oshirish bilan birga, sohani byurokratik to'siqlarni bartaraf etish orqali raqamlashtirishga yo'naltiriladi. Ayniqsa tizim faoliyati korrupsiyagen holatlardan bartaraf etilib, keng jamoatchilik nazorati o'rnatilishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda aytish mumkinki, yuqorida zikr etilgan xujjatning qabul qilinishi yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarining barcha tizim va tizim elementlarini rivojlantirish va mustahkamlash, NNTlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish hamda davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari uchun munosib loyihalarni tanlab olish sifati va shaffofligini oshirish orqali fuqarolik jamiyati institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Исаева М.А. Законодательные условия формирования целевого капитала некоммерческих организаций России и США: сравнительный анализ. //Вестник Чувашского университета. 2011. № 4. С.419-424.
2. Наримонов Б. Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкilotларининг ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш мавзусидаги юридий фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2020. – Б. 11.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: Ўзбекистон, 80-бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-4947-сонли Фармони.// <https://www.lex.uz/acts/3107036>